



**FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATDA
TUTGAN ÓRNI.FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING
HUQUQIY POYDEVORI**

Azirbaev Salamat Kuanishbaevich

*Qoraqalpoq davlat universiteti yurisprudensiya tálim yónalishi yuridika
fakulteti 3-kurs talabasi.*

Tel raqami: +998 90 700-68-62

Email: azerbaevsalamat947@gmail.com.

Annotaciya: Bu maqolada fuqarolik huquqi tushunchasi haqida va davlatimizda amalga oshirilyotgan islohotlar.Ijtimoiy munosabatlarni qonun doirasida tartibga solish.Jamiyatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinishi haqida.

Kalit sózlar: fuqarolik huquq, davlat, jamiyat, huquq va erkinliklar, predmet, tizim, Ijtimoiy munosabatlar.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bevosita bog'liqdir. Bozor munosabatlariga ótish, iqtisodiyotda xususiy mulkning mavqeyini oshirish, xususiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng yól ochib berish, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish, raqobat muhitini shakllantinsh, tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquq va manfaatlarini himoya qilish ayni kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Huquq nazariyasidan bizga málumki, kishilar muayyan jámiyatda, muayyan davlatda bir-birlari bilan ózaro ijtimoiy munosabatlarga kirishgan holda yashaydilar. Ushbu ijtimoiy munosabatlar orqali ular ózlarining moddiy, mánaviy va boshqa ehtiyojlarini qanoatlantiradilar, va óz imkoniyatlarini róyobga chiqaradilar. Bunday ózaro munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor va xatti-harakat qoidalarining



turlicha modellari ótmishda mavjud bolgan. Masalan, bularning eng ibtidoiy shakli: **”órmón qonuni”** deb ataladi.¹

Bunda kuchli shaxs boshqalar uchun xatti-harakat qoidalarini belgilaydi. Boshqalar kuchli shaxsga xizmat qiladilar, kuchli shaxs erk-irodasi ushbu munosabatlar xarakterin belgilovchi asosiy ommil hisoblanadi.

Asosiy bólim

Mamlakatimiz milliy huquq tizimidagi yetakshi huquq tarmoqlaridan biri bólib fuqarolik huquqi hisoblanadi. Fuqarolik huquqi mamlakatimizda bozor munosabatlari keng rivojlanayotgan fuqarolik jamiyati shakllanayotgan, kishilarni imkoniyatlarini róyobga chiqarishni ta’minlash maqsadlarida mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bólmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish, mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig’indisidan iboratdir.

Boshqacha qilib avtganda, fuqarolik huquqi - huquqiy jihatdan tenglikka, mulkiy jihatdan mustaqilikka va erk muhtoriyatiga asoslangan subyektlar órtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig’indisidir.²

Jámiyatda barcha huquq sohalari yagona huquq tizimini tashkil etadi. Ushbu huquq sohalari odatda ikki asosiy huquq tizimlariga ajratiladi: ommaviy huquq va xususiy huquq tizimlari. Ommaviy huquq tarkibiga kirgan huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar tikka chiziq (vertikal) ahamiyatga ega bo’lgan, yáni bir tarafning ikkinchi tarafga mámuriy bo'ysunishiga asoslangan munosabatlardan iborat.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar fuqarolik huquqi fanining predmetini tashkil etadi.

Birinchidan, bu munosabatlar mulkiy munosabatlar bo’lib, ular mol-mulk, moddiy boyliklar bilan bog’liq holda vujudga keladi.

Ikkinchidan, bu munosabatlar mulk bilan bog’liq shaxsiy nomulkiy munosabatlar hisoblanib, ayrim hollarda ular mulkiy munosabatlar bilan bog’liq

¹ NamDU-ARM-371-Fuqarolik_huquqi.

² Fuqarolik huquqi darslik 2017-yil TDYU



bolmaydi. Ana shu ikkita guruh munosabatlari fuqarolik huquqining predmeti hisoblanadi. Har ikkala guruh munosabatlarini ushbu munosabatlar ishtirokchilarining tengligi, erkinligi, daxlsizligi, mulkiy mustaqilligi, ularning xususiy ishlariga biror-bir kishining ózboshimchalik bilan aralashishiga yól qóyilmasligidan kelib chiqadigan holat birlashtiradi. Boshqacha aytganda, bu munosabatlar xususiy huquq subyektlari órtasida vujudga keladigan xususiy munosabatlardir.³

Fuqarolik qonunchiligi ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligiga, fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularning sud orqali himoya qilinishini ta'minlash zarurligiga asoslanadi.

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarini o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar.

Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'lar O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo'ladi.⁴

Xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, tabiatni va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lsa, tovarlar va xizmatlar harakatda bo'lishini cheklash qonunchilikka muvofiq joriy etilishi mumkin.

Xulosa

Fuqarolik huquqi — bu fuqarolarning shaxsiy, mulkiy, oilaviy va boshqa huquqlarini belgilab, ularni himoya qilish va tartibga solish uchun mo'ljallangan huquqiy tizimdir. U jamiyatda har bir shaxsning erkin va adolatli yashashi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Fuqarolik huquqi doirasida, shaxsning óz

³ Fuqarolik huquqi umumiy qism 2011-yil Toshkent

⁴ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Umumiy qism 1995



huquqlarini amalga oshirishda tósiqlarsiz harakat qilish huquqi himoya qilinadi. Jamiyatda fuqarolik huquqi jamiyatning tinchligi va tartibini saqlash, iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va huquqiy davlatning asoslarini shakllantirishda muhim rol óynaydi. Fuqarolik huquqi, shuningdek, fuqarolarga óz mulkiy va shaxsiy huquqlarini himoya qilish imkoniyatini beradi. Uning samarali ishlashi, jamiyatda adolat va tenglikni táminlashga, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Shu tarzda, fuqarolik huquqi nafaqat har bir fuqaroning huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatda adolatli tizimning shakllanishiga ham hissa qo'shadi.

REFERENCES

- 1) Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.Oqyulovning umumiy taliriri ostida. - T.: TDYU nashriyoti. 2017. — 311 bet.
- 2) Fuqarolik huquqi: [o'quv qóllanma]. umumiy qism / R.Dj.Ruziyev, V.R. Topildiyev; mas'ul muharrir B.B. Samarxo'jayev. —T.: ChoMpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. —624 b. I. Topildiyev, Vohid Raximovich.
- 3) O'zbekiston Respublikasi. (1995). O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Umumiy qism Lex.uz.